




Mayor's Office of
Immigrant Affairs



Nyu-Yorkdagi “Boshpana shahar” qonunlari



Immigratsiya ishlari bo'yicha shahar hokimligi boshqarmasining (Mayor's Office of Immigrant Affairs, MOIA) Immigratsiya masalalari bo'yicha ishonch telefoni



1-800-354-0365 raqamiga qo'ng'iroq qiling

Dushanba – juma 9AM – 6PM

Siz tanlagan tilda tarjima xizmati mavjud

Immigratsiya bo'yicha bepul va maxfiy yuridik yordam olish uchun immigrant nyu-yorkliklar Immigratsiya ishlari bo'yicha shahar hokimligi boshqarmasining (Mayor's Office of Immigrant Affairs, MOIA) Immigratsiya huquqiy yordam ishonch telefoni raqamiga qo'ng'iroq qilishlari mumkin.

**Nyu-York shahri 24/7
(7 kun, 24 soat ishlaydi) ishonch telefoni**



**311 raqamiga qo'ng'iroq qiling
"Immigration" (Immigratsiya)
deb ayting**

Tarjima xizmati mavjud



Immigratsiya qonunchiligi murakkab. Immigratsiya bo'yicha yolg'on va'dalar berishi mumkin bo'lgan huquqiy firibgarliklar yoki soxta provayderlardan ehtiyot bo'ling.

Unutmang: Litsenziyalı advokat bo'lmagan davlat notariusi sizning nomingizdan immigratsiya hujjatlarini to'ldira olmaydi yoki topshira olmaydi. Shuningdek, ular sizga huquqiy maslahat ham bermasligi kerak.

Nyu-York barcha nyu-yorkliklarning hayotini qadrlaydi. Immigratsion maqomingizdan qat'i nazar, bu yerda o'zingizni xavfsiz his qilishingizni istaymiz.





Shaharda shaxsiy daxlsizligingizni himoya qilishga qaratilgan qonunlar mavjud.

Agar biror idora sizdan yig'ayotgan ma'lumotlardan qanday foydalanishni rejalashtirayotgani haqida savollaringiz bo'lsa, bu haqida o'zlaridan so'rashingiz mumkin.



Nyu-York shahar qonunlari federal immigratsiya organlariga yordam berishda Shahar mulki, vaqti va resurslaridan qanday va qay darajada foydalanish mumkinligini **barcha shahar idoralari uchun belgilab beradi.**



Nyu-York shahrining boshpana to'g'risidagi qonunlari Nyu-Yorkdan hech kim deportatsiya qilinmasligini **anglatmaydi.**

**O'zimni qanday
himoya qilsam
bo'ladi?**



1

Oilangiz uchun reja tuzing.



Favqulodda vaziyat uchun bog'laniladigan shaxsni tanlang va uning telefon raqamini yodlab oling. Favqulodda vaziyat uchun bog'laniladigan shaxs siz ishonadigan inson, masalan, oilangiz a'zosi, do'stingiz, jamoatchilik yetakchisi yoki advokat bo'lishi mumkin.



Hujjatlaringizni tartibga soling va ularni favqulodda vaziyatda bog'laniladigan shaxslaringiz foydalana oladigan xavfsiz joyda saqlang.



Muqobil vasiyni, ya'ni agar qo'lga olinsangiz, farzandingizga g'amxo'rlik qilishi uchun o'zingiz ishongan odamni tanlang. Muqobil vasiylar o'z qaramog'idagi bola uchun muhim qarorlar, jumladan, jiddiy tibbiy qarorlar va bolaning qaysi maktabga borishi haqidagi qarorlarni qabul qilish vakolatiga ega bo'ladi.

2

Rasmiy organlar bilan muammoga tushib qolishdan ehtiyot bo'ling.

3

Huquq-tartibot idoralari xodimlari bilan jismoniy tortishuvga bormasligingiz kerak.

4

Hech qanday jinoyat ishlariga qo'shilmang.

Immigratsiya ishlari bo'yicha shahar hokimligi boshqarmasining (Mayor's Office of Immigrant Affairs, MOIA) Immigratsiya masalalari bo'yicha ishonch telefoni



1-800-354-0365 raqamiga qo'ng'iroq qiling

Dushanba – juma 9AM – 6PM

Siz tanlagan tilda tarjima xizmati mavjud

Immigratsiya bo'yicha bepul va maxfiy yuridik yordam olish uchun immigrant nyu-yorkliklar Immigratsiya ishlari bo'yicha shahar hokimligi boshqarmasining (Mayor's Office of Immigrant Affairs, MOIA) Immigratsiya huquqiy yordam ishonch telefoni raqamiga qo'ng'iroq qilishlari mumkin.

Nyu-York shahri 24/7 (7 kun, 24 soat ishlaydi) ishonch telefoni



311 raqamiga qo'ng'iroq qiling

"Immigration" (Immigratsiya) deb ayting

Tarjima xizmati mavjud

Qaydlar:

www.nyc.gov/knowyourrights

Eng so'nggi ma'lumotlarni olish uchun:



- **Telefoningiz kameranisi quyidagi QR-kodga yo'naltiring va bir necha soniya ushlab turing.**
- **Ma'lumotlarga kirish uchun ekranda paydo bo'lgan xabarnomaga bosing.**

